

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Abduraxmonov</b>	
Adabiy asardagi nurning xususiyatlari va funksiyalari (O'zbek lirikasi namunda).....	460
<b>A.B.Kosimova</b>	
O'zbek adabiyotida hikoya va drabllar.....	469
	TILSHUNOSLIK
<b>M.Y.Mamajonov</b>	
Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o'rni.....	473
<b>R.M.Shukurov, G.S.Jo'raboyeva</b>	
Farg'ona viloyati toponimlarining sotsiolingvistik xususiyatlari.....	477
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida.....	483
<b>F.X.Qosimova</b>	
O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili.....	488
<b>A.A.Ergashev</b>	
Etnotoponimlar tadqiqi.....	496
<b>H.Sh.Radjabova</b>	
Terminologik lug'atlar tadqiqiga doir.....	502
<b>S.A.Jabborova</b>	
Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages.....	507
<b>Sh.R.Amonturdiyeva</b>	
Diniy uslub shakllanishining antropotsentrik va kognitiv asoslari.....	511
<b>D.I.Mirzayeva</b>	
Tillardagi turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi.....	517
<b>X.F.Xaydarova</b>	
Taqlid so'zlarning statistik tahlili (O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari misolida).....	520
<b>M.A.Hojiyeva</b>	
Filolog mutaxassislarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati.....	524
<b>I.A.Egamberdiyeva</b>	
Metafora - til, madaniyat va ma'naviyat ko'zgusi.....	527
<b>D.I.Mirzayeva, X.R.Mirzayeva</b>	
O'zbek va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'lchov so'zlarning qo'llanilishi.....	531
<b>Z.Sh.Ashurova</b>	
Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari va muallif individual uslubi talqini.....	535
<b>I.T.Hojaliyev, G.S.A'zamova</b>	
Adekvatlik va uni ta'minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar.....	539
<b>Z.M.Sobirova</b>	
Til va ong munosabati L.S.Vigotskiy psixologik talqinida.....	545
<b>V.A.Vositov</b>	
So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida.....	550
<b>M.T.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov</b>	
Konvergensiya va uning sintaktik-stilistik funksiyasi.....	557
<b>D.I.Khodjaeva</b>	
Lingvodidaktika va metodika terminlari tavsifi, farqli jihatlari.....	562
<b>O.M.Yusupova</b>	
Ingliz va O'zbek maishiy ertaklaridagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili.....	567
<b>M.V.Nasridinov</b>	
"Maqsad" konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfemalarning qiyosiy tadqiqi.....	572
<b>M.O.Batirkhanova</b>	
Lexicographic analysis of somatisms in different languages.....	577
<b>M.U.Mamadjanova</b>	
Interpretation of epithetic compounds in linguistics.....	582
<b>M.V.Nasridinov</b>	
Ingliz va O'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik struktural, semantik tahlili.....	586
<b>M.Y.Madiyeva</b>	



UO'K: 81'373.6

**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI FRAZEOLGIK BIRLIKLARDA O'LCHOV SO'ZLARNING QO'LLANILISHI****USE OF MEASURING WORDS IN PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES****ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕРНЫХ СЛОВ ВО ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ****Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna<sup>1</sup>** <sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, PhD, dotsent**Mirzayeva Xusnidaxon Ravshanjon qizi<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti magistranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'lchov so'zlarning qo'llanilishi misollar bilan qiyosiy taxlil qilingan. Frazeologik birliklarni o'rganish jarayonida har ikki tilda ham hisob so'zlardan keng foydalanilganligi va ular turli tillarda o'z ma'nosiga ega ekanligi, ularning tilshunoslikda muhim rol o'ynashi misollar bilan ochib berilgan.

**Аннотация**

В данной статье проведен сравнительный анализ употребления слов меры во фразеологизмах узбекского и английского языков на примерах. В процессе изучения фразеологизмов на примерах выясняется, что в обоих языках широко используются арифметические слова и что они имеют свое значение в разных языках, играют важную роль в лингвистике.

**Abstarct**

This article provides a comparative analysis of the use of measure words in phraseological units of the Uzbek and English languages using examples. In the process of studying phraseological units using examples, it turns out that arithmetic words are widely used in both languages and that they have their own meaning in different languages and play an important role in linguistics.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birliklar, turg'un so'z birikmalari, hisob so'zlar, o'lchov so'zlar, o'lchov, morfologiya**Ключевые слова:** фразеологизмы, устойчивые словосочетания, счетные слова, измерительные слова, мера, морфология.**Key words:** phraseological units, fixed word combinations, counting words, measurement words, measurement, morphology**KIRISH**

Dunyoda tilning paydo bo'lishi nafaqat insonlar o'rtasida muloqot balki hisoblash, o'lchash ilmining paydo bo'lishiga ham turtki bo'ldi. "O'lchash" tushunchasi ham falsafiy (anglash nazariyasida), ham maishiy (bir litr suvga qancha tuz zarur), ham tijoriy (o'lchangan miqdorga to'lov qilish, masalan, elektr energiyasi uchun), ham texnik (mahsulot tayyorlashda kerak bo'lgan komponentlarning o'lchami, vazni, parametrlari), ham ilmiy nuqtayi nazardan talqin qilinishi mumkin[2,7]. O'lchash birligini ta'minlash inson oldida asrlar osha o'ta muhim masala bo'lib kelgan va u hozir ham aktual, kelajakda ham shunday bo'lib qoladi, zero, vaqtga bog'liq tarzda talablar ham ortib bormoqda.

Tarixdan bizga ma'lumki, odam asta-sekin hisoblash san'atini bilan birgalikda o'lchamlarni ham anglashga zarurat sezgan. Bizning qadimgi ongli ajdodimiz yashash uchun g'or topishga harakat qilgan va u o'z boshpanasining uzunligi, kengligi va balandligini tanasining o'lchamlari bilan muvozanatlashga majbur bo'lgan. Qadimgi zamonda eng oddiy vositalarni tayyorlash, boshpana qurish va oziq-ovqat topishda masofalarni va maydonlarni, sig'imlarni, massani, vaqtni o'lchash

zarurati paydo bo'lgan. Bunday o'lchashlarni amalga oshirish uchun qadimgi odamda faqat o'zining bo'yi, oyoq-qo'llarning uzunligi bor edi va asrlar davomida insoniyat ongi yuksalib "o'lchash" tushunchasi ham rivojlanib bordi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Tilshunoslikda morfologiya - so'z turkumlari tadqiqi bilan shug'ullanadi va shu bilan birgalikda ularning grammatik xususiyatlarini namoyon etadi. Biz tahlil etmoqchi bo'lgan ushbu maqolada son so'z turkumi hamda uning tarkibida o'rganiluvchi hisob so'zlar doirasiga kiruvchi o'lchov birliklarining o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklaridagi pragmatik xususiyatlari aks ettirilgan. Ta'kidlash o'rinliki, o'lchov birliklariga oid so'zlarning pragmatik xususiyatlari og'zaki va yozma nutq doirasida tadqiq qilinadi, ya'ni ushbu so'zlarning matn ichidagi holati mavzu uchun ahamiyatli hisoblanadi.

O'lchov birliklariga oid hisob so'zlar ma'lum miqdorni o'lchash uchun qo'llaniladigan numerativlar hisoblanib, ularni mazmun jihatidan

- uzunlik o'lchovi
- og'irlik o'lchovi

kabi yirik guruhlariga ajratgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq. O'lchov birliklarini ifodalovchi numerativ so'zlar qo'llanilish doirasiga ko'ra tarixiy hamda zamonaviy birliklarga hamda qaysi tildan o'zlashganligiga ko'ra o'z va o'zlashgan qatlamga ajratiladi. Jumladan, botmon, tanob kabi so'zlar qo'llanilish davriga ko'ra tarixiy qatlamni tashkil etsa, kilogramm, gramm kabi ifodalar o'zlashilish doirasiga binoan o'zlashgan qatlamni tashkil etadi. Ularni pragmatik jihatdan tahlil qilish jarayonida, dastavval, uning og'zaki yoki yozma matn ichida aks etishiga alohida e'tibor berish lozim, jumladan, eskirgan guruhga oid bo'lgan birliklar, asosan, yozma matnlar doirasiga aloqador holda ishlatilsa, chet tillaridan o'zlashgan istilohlar og'zaki nutqiy holat uchun mos sanaladi.

Ingliz tilshunosligida o'lchov so'zi ma'lum bir otning miqdorini bildiruvchi so'zdir. O'lchov so'zlari sanalmaydigan otlarga nisbatan qo'llaniladi. Ba'zi hollarda o'lchov so'zi muayyan o'lchov birligi bo'lishi mumkin. Masalan, "besh tonna zig'ir" iborasida "tonna" o'lchov so'zidir. Ingliz tilida barcha otlar miqdorni bildirish uchun o'lchov so'zlarini talab qilmaydi. Masalan, o'lchov so'zini ko'rsatmasdan turib "besh kishi"(five people) deyish mumkin. Bu otlar sanab bo'ladigan deyiladi - ya'ni har bir ot diskret birlikni bildiradi. Bu turdagi otlar "sanoq otlari" sifatida ham tanilgan.

Aksincha, boshqa otlar sanalmaydigan otlar sifatida tanilgan. Sanalmaydigan ot diskret emas, balki uzluksiz bo'lgan narsani bildiradi. Masalan, "sut"(milk) sanalmaydigan otdir, chunki sutda alohida bo'linish mavjud emas. Sanaladigan va sanalmaydigan ot o'rtasidagi kontrast "uch pechenye va uch stakan sut" iborasida ko'rinadi. "pechenye"(Cookie) sanaladigan ot o'lchov so'zini talab qilmaydi, "milk" sanalmaydigan ot esa o'lchov so'zini talab qiladi.

Sanalanadigan va sanalmaydigan otlar orasidagi bu farq tildan tilga bir oz farq qiladi. Ba'zi tillarda, hatto sanab o'tiladigan otlar ham, bu otning soni tasvirlanganda, boshqa so'zni qo'shishni talab qiladi. Bunday turdagi so'z sonlar tasniflagichi deyiladi. Ba'zi olimlar ushbu turdagi tasniflagichni tavsiflash uchun "o'lchov so'zi" atamasidan ham foydalanadilar. Darhaqiqat, son tasniflagichlari va o'lchov so'zlari o'rtasida juda ko'p o'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, ular muhim jihatdan bir oz farq qiladi.

- A piece of cake- bir bo'lak tort
- A glass of water- bir stakan suv
- A cup of coffee- bir finjon kofe
- A loaf of bread- bir bo'lak non
- A bar of chocolate- bir bo'lak shokolad
- A bottle of wine- bir banka vino

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarida o'lchov yoki hisob so'zlardan samarali foydalanilib kelinadi. Frazeologik birliklarda qo'llanilgan o'lchov so'zlar u yoki bu milliy mentalitetga xos bo'lib, ular ushbu xalqning milliy o'ziga xosligini, olamni anglash borasidagi o'ziga xos fikrlash tarzi, xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, an'analari, tarixini yoritib beradi. O'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarida qo'llanilgan o'lchov so'zlar quyida misollar bilan tahlil qilinadi. Masalan, ingliz tilidagi "a piece"- "parcha, qism" o'lchov so'zi quyidagi ma'nolarda qo'llanilgan:

## TILSHUNOSLIK

- *A piece of cake – a task that can be accomplished very easily.* Ya'ni "Bir bo'lak tort" iborasi judayam oson ish, hech qanday qiyinchiliksiz bajarish mumkin ma'nosini anglatadi:

- *Jumping that two-foot fence? No problem- a piece of cake.*

- *To'siqdan sakrab o'ta olasanmi? Muammo yo'q- oson ishku.*

- *A piece of the action- a share in an activity, or its profits.* Ya'ni biror ishni bajarishda yordamlashmoq ma'nosini beradi. Ushbu misolda "a piece" – "parcha, qism" o'lchov so'zi bajariladigan harakatning ma'lum bir qismini anglatyapti.

- *You want a piece of my action, Sam?*

- *Senga yordam berishimni xohlaysanmi, Sam?*

Ingliz tilida o'lchov so'zlar ishtirok etgan frazeologik birliklar ko'p. Masalan, "a pair of shoes"- "*bir juft oyoq kiyim*" iborasida "pair"- juft so'zi butun iboraning ma'nosini ifodalab beradi. Ya'ni ikki insonning yoki narsaning birgalikda juftligi, ajralmas qism ekanligi huddi oyoq kiyimni juftidan ajratib foydalana olmaganimizdek ma'nosini ifodalanadi.

- *My partner and I worked together like a perfect pair of shoes.*

- *Men sherigim bilan huddi ajralmas bir juft bo'lib ishladik.*

Yoki "*a drop in the bucket*" iborasini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu fraza kelib chiqishi muqaddas Bibliya kitobi bilan bog'liq:

"Behold, the nations are as a drop of a bucket and are counted as the small dust of the balance"[3,26]

"A drop in the bucket" frazasi "judayam kichkina yoki oz miqdor" ma'nosini anglatadi. O'zbek frazeologiyasida ham huddi shu ma'nodagi misollarga duch kelishimiz mumkin. Masalan, "bir chimdim", "bir og'iz" yoki "bir shingil" frazalarida **chimdim, og'iz, shingil** so'zlari miqdor so'zlar bo'lib, "qittak, ozginagina"[8,43-44] ma'nosini beradi.

- *Hazil-huzul, bir chimdim suhbatdan so'ng Mirhaydar va O'ktam paxta dalasiga yo'l oldilar*[5,53]

- *Payti kelganda, doktorlardan, professorlarda ham bir shingil- yarim shingil maslahat oldim*[5,68]

O'zbek tilshunosligida o'lchov yoki hisob so'zlar **siqim, bo'lak, qism, burda, parcha, tilim, chimdim, shingil, luqma, yutum, og'iz** so'zlari bilan ifodalanadi. O'zbek frazeologiyasida o'lchov so'zlarning ro'li katta va ular o'zbek xalqining tarixi, an'analarini namoyon etadi. Masalan,

- "*Burnini bir qarich ko'tarmoq*"- *gerdaymoq, kibrlanmoq*[8,57] ma'nosini anglatadi.

- *Xo'jayinning laychasi-ku, burnini bir qarich ko'targaniga hayronmiz.*[6,83]

- "*Bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday*"- *beqiyos go'zal, nihoyatda dilrabo.* O'zbek qizlari va ayollarining chiroyi latofatini ta'riflashda qo'llaniladigan ushbu ibora o'zbek adabiyotida muhim ro'l o'ynaydi.

- *Qizlar bir qoshiq suv bilan yutvorguday bo'lib yasanishdi*[7,44]

## XULOSA

O'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda qo'llanilgan o'lchov so'zlarni yuqoridagi misollar orqali tahlil qilar ekanmiz, o'lchov so'zlar har ikki tilning frazeologiyasida muhim ro'l o'ynashiga guvoh bo'lamiz. Ushbu so'zlar xalqlarning tarixi, madaniyati, urf-odat bilan uzviy bog'liq hamda ular o'zbek va ingliz adabiyotida alohida o'ringa ega. Ingliz frazeologik birliklarida qo'llanilgan o'lchov so'zlarning ayrimlari tarixan muqaddas Bibliya kitobiga borib taqalsa, o'zbek tilshunosligida o'lchov so'zlarning qo'llanilishi ko'proq xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari frazeologik birliklarda o'lchov so'zlarning qo'llanilishi lingvokulturologik ma'no va ahamiyatga ega. Ular har bir xalq, millatning adabiyotida, tili va madaniyatida muhim rol o'ynaydi. Shuni ta'kidlash joizki, ingliz tilida frazeologik birliklar ko'chma ma'noga ega, ya'ni ular so'zma-so'z tarjima qilinganda boshqa ma'noga ega bo'ladi. Frazeologik birliklar tarkibidagi o'lchov so'zlar ham ayrim holatlar o'z ma'nosini yo'qotib ko'chma ma'noda qo'llanilganligini yuqoridagi misollarda ko'rib chiqdik. Ammo o'zbek tilshunosligida va o'zbek frazeologiyasida qo'llanilgan hisob so'zlar o'z ma'nosida qo'llaniladi. O'zbek adabiyotining yorqin namoyondalari xususan, S.Ahmad, Oybek, Cho'lpon kabi yozuvchilari o'z asarlarida iboralardan unumli foydalangan va ularda qo'llanilgan o'lchov so'zlar ham tahlil qilindi. Yuqoridagi ko'rib chiqilgan misollardan shuni xulosa qilish mumkinki, o'lchov yoki hisob so'zlar har ikki tilning nafaqat tilshunosligida balki frazeologiyasida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. A.V.Kunin (1990) The course of the modern English phraseology, Moscow
2. A.Mamajonov, M.Sattarov, D.Xakimov "O'Ichash usullari va vositalari"- Toshkent,2020 B-7
3. Bibliya, Isaiah 40:15 B-26
4. Granger, S., & Meunier, F. (Eds.). (2008). Phraseology: An interdisciplinary perspective. John Benjamins Publishing.
5. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar-Toshkent,1959 B-53
6. Oybek. Qutlug' qon-Toshkent,2019 B-83
7. Said Ahmad. Mastonbibi-Toshkent,1968 B-44
8. Sh. Rahmatullayev (1978) O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, Toshkent
9. Sh. Rahmatullayev. O'zbek frazeologiyasining ayrim muammolari-Toshkent,1966
10. <http://google.uz/frazeologiya/uz/094090>